




**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**



**07.00.08 – TARIXSHUNOSLIK, MANBASHUNOSLIK VA TARIXIY
TADQIQOT USULLARI IXTISOSLIGI BO'YICHA
TAYANCH DOKTORANTURAGA KIRISH SINOVLARI
UCHUN MUTAXASSISLIK FANLARIDAN**

DASTUR VA BAHOLASH MEZONI

Samarqand – 2025

ANNOTATSIYA

Dastur 07.00.08 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari talabgorlari uchun 2025-yilda tasdiqlangan o‘quv rejasidagi asosiy fanlar bo‘yicha tuzildi.

Tuzuvchilar:

Ergashev B.E.	–	SamDU, Tarixshunoslik va manbashunoslik kafedrası mudiri, tarix fanlari doktori, professor
Radjabova D.N.	–	SamDU, Tarixshunoslik va manbashunoslik kafedrası dotsenti, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Yarmatov O.Sh.	–	SamDU, Tarixshunoslik va manbashunoslik kafedrası dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Ergashev S.M.	–	SamDU, Tarixshunoslik va manbashunoslik kafedrası dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Dastur Tarix fakultetining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli Kengash yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KIRISH

Mustaqil O‘zbekiston. Milliy qadriyatlarining qayta tiklanishi. Milliy madaniyat. Mustaqillik davrida tarix fani vazifalari, yangi muammolar, yangicha fikrlash, yangicha uslubiy qoidalar, aniq ifoda. O‘zbek davlatchiligi muammolari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 24-maydagi “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida tarixshunoslik va manbashunoslik sohasida ilmiy tadqiqotlarning dolzarb vazifalaridan biri hisoblagan. Taraqqiyot strategiyasi va davlat dasturining maqsad va vazifalarini ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog‘ida va ijtimoiy tarmoqlarda keng sharhlab borilishini hamda uning mazmun-mohiyati jamoatchilikka tushuntirilishi ko‘rsatilgan. Taraqqiyot strategiyasi va davlat dasturi doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning borishi va natijalari to‘g‘risidagi xolis va to‘liq ma’lumot aholiga tezlik bilan etkazilishini ta’minlanadi. O‘zbekiston xalqlari tarixining dolzarb muammolari. Tarix fani rivojlanishining asosiy tamoyillari. Tarixiy tadqiqod usullari.

O‘zbekiston Respublikasi 2017-2021 yillar rivojlanishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida – davlatchilik va mamlakat ilmiy salohiyatini oshirishga qaratilgan imkoniyatlar hamda 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish; mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish; milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur‘atlarini ta’minlash; adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish; ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish; milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish; mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish kabi yangi islohotlar majmuasi. Bunda, chora-tadbirlar ijrosi bo‘yicha aholining fikrlari, taklif va e’tirozlarini qabul qilgan holda ilgari surilgan tashabbuslar tizimlashtirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning YuNESKO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqidagi asosiy vazifalar, Ta’lim sohasida o‘zaro bilim va tajriba almashish uchun xalqaro muloqot formatini yaratish maqsadida Jahon professional ta’lim sammitini o‘tkazish bo‘yicha takliflari mazmuni, inklyuziv ta’limni rivojlantirish va sohada sun’iy intellekt texnologiyalarini keng qo‘llashga doir loyihalarning mohiyati, O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosatiga oid davlat dasturlari doirasidagi

dolzarb vazifalar, O‘zbekiston Respublikasida beshta tashabbus doirasidagi talablarni bajarish.

O‘zbekiston Respublikasida Oliy ta’lim tizimining 2030-yillarga mo‘ljallangan farmonlari ijrosini taminlash bo‘yicha vazifalar. Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, ilmiy-intellektual hamda moliyaviy resurslarni to‘liq safarbar etgan holda ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, istiqbolda ilm-fanni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi.

Manbashunoslik va tarixshunoslik, Fan va texnika tarixi, Muzeyshunoslik va arxivshunoslik, Tarix o‘qitish metodikasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari Mustaqil O‘zbekiston tarixini o‘rganishda manba sifatida kabi fanlar tarix sohasida ta’lim olayotgan talabalar, magistrantlar, doktorantlar va ilmiy tadqiqot olib borayotgan izlanuvchilar uchun Malaka talablari asosida o‘quv tizimiga mo‘ljallangan yo‘nalishlardan hisoblanadi. Ushbu fanlar tarix ilmiy izlanishlarining ajralmas qismlaridir. Tarixshunoslik va manbashunoslik fani tarixda insoniyat o‘tmish sahifalarini o‘zida aks etgan tarixiy asarlarni o‘rganish bilan birga, ularda tarixiy jihatdan bayon etilgan voqealarning turlicha ko‘rinishda bo‘lishlari bilan cheklanmaydi va ularda tarixiylik isbot-dalil prinsiplari asosida voqea-hodisalarni o‘rganadi.

Tarixshunoslik va manbashunoslik fanining chegaralari va tematikasi tarixiy manbalarning yangi turlarining ilmiy jihatdan o‘rganilishi asosida kengayib boradi. Shu jihatdan tarixiy manbashunoslik fani yozma manbalarga ularning yaratilish vaqti, muallifi, xronologiyasi, haqqoniylik darajasi va yana ko‘pgina tahliliy jarayonlardan so‘ng tarixiy manbalarni ilmiy asoslangan ma’lumot sifatida qabul kilish mumkinligini taqozo etadi. Tayyorlangan ushbu dastur Malaka talablariga mos holatda va 07.00.08 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari mutaxassisligi bo‘yicha doktoranturaga kirish imtixonlari uchun talablarga mos holatda tuzilgan.

ASOSIY QISM

Tarixshunoslik fani tarixi. Tarixshunoslik ma’nosi. Tarixshunoslik fanining tarix fani va ijtimoiy fanlar doirasida tutgan o‘rni va ahamiyati. Tarixshunoslikning davrlanishi, turlari. Qadimgi davr tarixiga oid tarixiy asarlar: Gerodotning (mil.av. V asr) “Tarix”, Strabonning (mil.av. 64-24 yy) “Geografiya” asarlari. Birinchi ilmiy tarixiy asarlar. Fukidid (mil.av. IV asr), Polibiyning (mil.av. II) “Umumiy tarix” (40 jild) asari, Arrian “Aleksandr annabasisi” (milodiy I asr), Yuliy sezarning “Gallar bilan urushi to‘g‘risida” asarlar.

O'rta asr insonparvarlik (gumanistik) tarixshunosligi tarixini yangicha davrlanishning boshlanishi O'rta asr Yevropa tarixshunosligining o'ziga xos xususiyatlari. Xerman Vamberi. XIX asrda Ogyust Kont (1799-1857), Georg Vilgelm, Fridrix Gegel (1770-1831) va boshqalarning tarix to'g'risidagi fikrlari va qarashlari. XX-XXI asrlarda Yevropadagi tarixshunoslik maktablari va undagi tarixshunos olimlarning asarlari.

Manbashunoslik fani manbalarni aniqlash va uning ilmiy ahamiyati. Manbalarni mavzular tartibida saralash va uning asosiy shartlari. Manbalarni tahlil qilish uslublari. Manbalarni tashqi va ichki belgilariga qarab taxlil qilish. Manbalarni umumiy tavsiflash va alohida bir manbani tadqiq etish. Matnni aniqlash. Asl manba. Manba yozilgan davr va joy, unda tarixiylikning in'ikosi. Manbaning yaratilish tarixi shart-sharoit va undagi tarixiy haqqoniylik mezon (hujjatlarda tarixiylik deyarli real aks etgan bo'ladi). Asl manbadan ko'chirilgan nusxalar. Nusxalarning asl manbaga yaqinligini aniqlash muammolari.

Tarixiy manba haqida umumiy xulosalar chiqarish. O'rta Osiyo tarixiga oid qadimgi va ilk o'rta asr yozma manbalari (arab yozuvigacha), Qadimgi epigrafik manbalar, sharq qo'lyozmalari xazinalari, O'rta Osiyoning IX-XV asrlar va XVI-XIX asrlar tarixiga oid yozma manbalar, O'rta Osiyo tarixiga oid rus va evropa tillaridagi yozma manbalar, O'zbekistonning XX asr tarixiga oid manbalar va O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti yillaridagi tarixiga oid manbalar. Tarixiy manbalarni to'plash va saqlash masalalarini yoritib beradi.

Fan tarixi kursining predmeti, maqsad va vazifalari, uning dolzarbligi, ilmiy va amaliy ahamiyatini o'rganadi hamda talabalarga «Fan va texnika» tushunchasi, uning rivojlanish qonuniyatlari va tamoyillari, fanning tarkibi va tuzilishi, uni tashkil qilish va boshqarish, fanning tasnifi. Fanning ijtimoiy roli va uning rivojlanish istiqbollari xaqida tushuncha beradi Mustaqil O'zbekistonda fan taraqqiyoti va rivojlanishi haqida ma'lumotlar beradi. "Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi"da ko'rsatib o'tilgan talaba-yoshlarning tarixiy dunyoqarashini boyitish, ulardan mustaqil fikrni qaror toptirish, fan tarixining inson va jamiyat tarixi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatib berish bilan belgilanadi.

Shuningdek, "Fan va texnika tarixi" fani haqidagi bilimlarni qaror topshirish, Antik davrda ilmiy tafakkurning paydo bo'lishi va shakllanishi, IX-XI asrda musulmon Uyg'onish davri. Sharq olimlarining dunyo ilmiy taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, O'rta asrlarda Yevropa fani, Uyg'onish davri. XIV-XVI asrlar Yevropada ilmiy bilimlar rivojida yangi davr, Markaziy Osiyoda Amir Temur va temuriylar davri fan taraqqiyoti, Yangi davr fani. Fanning shakllanish jarayoni va uning zamonaviy talqini, XX asr-ilmiy texnika taraqqiyoti va ilmiy-texnika inqilobi asri hamda, mavjud ilmiy adbiyotlar va zamonaviy nazariyalar hamda olib borilayotgan tadqiqot ishlarini o'rganish, fan bo'yicha to'plangan ilg'or tajribalar,

kadrlar buyurtmachilarining talab va takliflari kabi masalalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Tarixshunoslik – tarix fanining ixtisoslashgan yo‘nalishi bo‘lib, voqea va hodisalarni batafsil o‘rganuvchi fandır. Tarixshunoslik tarixiy bilimlar taraqqiyotini, muayyan tarixiy bosqichda yaratilgan ilmiy mahsulotlarni yoki ma’lum bir muammoga bag‘ishlangan tarixiy tadqiqotlarni urganadi va taxlil qiladi. Tarixshunoslik nafaqat tarix, balki maxsus tarix fanlari tarixi bilan xam shugullanadi. Tarixshunoslikning asosiy vazifasi tarix fani rivojini chuqur va har tomonlama xolisona anglashdan, muayyan taraqqiyot davrida to‘plangan tarixiy bilimlarni tahliliy tadqiq etishdan, amalga oshirilgan ishlarning natijasini chiqarishdan hamda shu asosda tadqiq etilgan dolzarb muammolarni aniqlab, kelgusi tadqiqotlarning yunalishlarini belgilashdan, tarixchilarni muayyan tarixiyilmiy muammo doirasidagi adabiyotlarga yunaltirishdan iborat.

Tarixshunoslik o‘tmishda kechgan va bugungi kunda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarning odamlar ongida qanday aks etishini, tarixiy adabiyotlar orqali ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonini kuzatish; jamiyat tarixiy rivojining turli bosqichlarida tarixiy bilimlarning o‘tib borishi jarayonini kuzatish imkonini beradi. Tarixni ma’lum bosqich yoki davrda tarix fanining rivojini jamiyat taraqqiyotining asosiy yo‘nalishi bilan bog‘liklikda ifodalaydi, ijtimoiysiyosiy, mafkuraviy muhitning tarix faniga ta’sirini, u yoki bu yo‘nalishdagi rivojlanish va tanazzulga yuz tutish sabablarini aniklaydi. Tarixshunoslik, shuningdek, fan taraqqiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan IT markazlari tarixini, unda faoliyat ko‘rsatgan ilmiy kadrlarning salohiyati, ularning fan rivojiga qo‘shgan hissalarini o‘rganish kabi vazifalarni ham bajaradi.

Tarixshunoslik va manbashunoslik sohasiga oid tadqiqotlarning bir qancha tahlil usullari mavjud:

Qiyosiy tarixiy usul – turli tarixiy davrlarda tarixiy ma’lumotlar va jamiyat taraqqiyotida tarixiy fikrlarning qanday paydo bo‘lishi, harakatlanishi, o‘zgarishi va rivojlanishi jarayonini aniqlashda qo‘llaniladi.

Aniq tahliliy usul – olib borilgan Tarixshunoslik tadqiqoti voqea-hodisalar tafsilotini kelib chiqish sabablari, rivojlanish jarayonini nazariy va faktik materiallarning o‘zaro aloqasida taxlil qiladi, ularning fanda qanday yoritilganligini o‘rganadi.

Mantiqiy tahliliy usul – tarixshunoslikda katta imkoniyatlarga ega bo‘lib, tarixiy muammoning o‘ziga xos xususiyatlari, tuzilishi, boshqa tarixiy hodisalar bilan bog‘liqligini o‘rganishda qo‘llaniladi. Boshqacha aytganda, ma’lum bosqich yoki davrda tarix fanining rivojini jamiyat taraqqiyotining asosiy yo‘nalishi bilan bog‘liqlikda ifodalaydi.

Xronologik usul – voqea-hodisalar haqida turli bosqich yoki davrda to‘plangan tarixiy faktlarni o‘zaro bog‘liklikda o‘rganishda qo‘llaniladi. Bu esa turli zamonda ilmiy fikrlarning harakatini, muammoga yondashuvda konsepsiyalar, qarashlar, g‘oyalarning o‘zgarib borishini xronologik tartibda takroriy yoki xilmaxil jihatlarini ochib beradi.

Davriylashtirish usuli – ma’lum bir tarixiy davriy chegarada tarix fanining sifat, uslub va xususiyatlarining o‘zgarishiga ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning ta’siri, har bir yangi bosqichda vujudga kelgan ilmiy g‘oyalarni harakatlantiruvchi omil va yo‘nalishlar aniqlanadi.

Retrospektiv tahlil usuli – har bir ilmiy adabiyot o‘z davriga taalluqli bo‘lib, uning kuchli va kuchsiz jihatlarini o‘zida aks ettiradi. Tarixshunoslik tadqiqotlarda tadqiqotchining vazifasi o‘zidan avvalgi bosqichlarda yaratilgan ilmiy asarlarni zamonaviy bilimlar nuqtai nazaridan o‘rganish, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini taxlil qilishdan iborat.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shavkat Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining YuNESKO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi. – T.: O'zbekiston, 2025.
2. Shavkat Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – T.: O'zbekiston, 2024.
3. Shavkat Mirziyoyev. Inson qadri uchun // Saylovoldi dasturi. – T.: O'zbekiston, 2023.
4. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2022.
5. Shavkat Mirziyoyev. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun. – T.: O'zbekiston, 2022.
6. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – T.: O'zbekiston, 2021.
7. Shavkat Mirziyoyev. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – T.: O'zbekiston, 2020.
8. Shavkat Mirziyoyev. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – T.: O'zbekiston, 2019.
9. Shavkat Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017.
10. Shavkat Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida farmoni. – T.: Adolat, 2017.
11. Shavkat Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etish. – T.: O'zbekiston, 2017.
12. Shavkat Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovidir. – T.: O'zbekiston, 2017.
13. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.
14. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. – T.: O'zbekiston, 2011.
15. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: O'zbekiston, 2008.
16. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: Muloqot, 1998.
17. Karimov I.A. O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – T.: O'zbekiston, 1996.

18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida. № 498 // 06.08.2025.

19. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Oliy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida. № 14 // 16.01.2025.

20. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyatini tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida. № 489 // 08.08.2024.

21. Ergashev B.E. Manbashunoslik va tarixshunoslik. – Samarqand, 2021.

22. Maxmudov T.I. Muzeysunoslik va arxivshunoslik. – Samarqand, 2024.

23. Saidov I.M. Tarix o'qitish metodikasi. – Samarqand, 2021.

24. Yakubov A.S. Fan va texnika tarixi. – Samarqand, 2023.

25. Раджабова Д.Н. Историография. – Самарканд, 2022.

26. Эргашев Б.Э. Источниковедение. – Самарканд, 2023.

27. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – T.: Fan, 1968.

28. Ahmedov B. Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirasida. – T.: Yozuvchi, 1997.

29. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – T.: O'qituvchi, 1994.

30. Amir Temur Ko'ragon. Zafar yo'li. Nashrga tayyorlovchi A.Ahmedov. – T.: Nur, 1992.

31. Ibn Arabshox. Amir Temur tarixi. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi. U.Uvatov. – T.: Mehnat, 1992.

32. Mullo Olim Mahmud Xoji. Tarixi Turkiston. – Qarshi: Nasaf, 1992.

33. Zaxriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Nashrga tayyorlovchi P.Shamsiyev. – T.: Yulduzcha, 1989.

34. Абу Джафар ат – Табарий. История ат – Табарий. – Т.: Фан. 1987.

35. Авесто. Избранные гимны. Перевод с авестийского и комментарии И.М.Стеблин. – Душанбе: Адиб, 1990.

36. Бартолд В.В. Собрание соч. В IX томах. – М.: 1960 – 1968.

37. Геродот. История. Древнегреческий текст и перевод. – Л.: Наука, 1972.

38. Гиёсиддин Али. Дневник похода Тимура в Индии. Перевод с персидского, предисловие и примечания А.А.Семёнова. – М.: 1958.

39. Зевелев А.И. Историография Туркестана. – Т.: Узбекистан, 1968.

40. Рюй Гонзалес де Клавихо. Дневник. Путешествие в редис.
М.С.Миронова. – М.: 1990.

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETINING TAYANCH
DOKTORANTURA IXTISOSLIKLARIGA KIRISH SINOVLARI UCHUN
MUTAXASSISLIK FANLARDAN TALABGORLARNING BILIMLARINI
BAHOLASH MEZONI**

Sinov topshirish shakli	Yozma
Ajratilgan vaqt	120 daqiqa
Savollar soni	5
Har bir savol uchun belgilangan ball	20
Eng yuqori ball	100